
CHAQALOQ SAVDOSI BU KELAJAKKA TAHDID!



CHAQALOQ SAVDOSI BU KELAJAKKA TAHDID!

Bugungi kunda oramizda farzand ne'matiga beparvolik bilan qarayotgan, buyuk ne'matni qadriga yetmasdan uni daromad olish manbaiga aylantirib qo'yayotgan kimsalar topiladi.

Chaqaloq savdosi jinoyatida vositachi sifatida ishtirok etgan har qanday shaxslarga nisbatan jazo tayinlanishi og'ir jinoyatga qo'l urgan shaxslar jazo muqarrar ekanligi aslo yoddan chiqmasligi darkor.

Chaqaloq o'zining odam savdosi qurboni bo'layotganini, jirkanch kimsalarning daromad manbaiga aylanayotganini anglamaydi, o'zining jabrlanganligi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bera olishida ojiz shaxsdir.

Bundan tashqari, odam savdosi jinoyatlari orasida chaqaloq savdosi jinoyati o'zining xavfliligi bilan alohida tusga ega. Biroq, boshqa tarafdin bu juda achinarli holat bo'lib, norasida go'dak odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Aksariyat holatlarda bevosita chaqaloqning onasi tomonidan ushbu mudxish jinoyat sodir etilmoqda.

Demak, chaqaloq savdosi va umuman odam savdosi jinoyatlarining ildizi, jinoyat sodir etuvchi shaxslarning doiralari juda keng bo'lib, ularga qarshi kurashda kompleks harakatlar, qat'iy jazo choralari hamda insoniy fazilatlar talab etiladi.

Endilikda bu kabi illatlarga qarshi kurashish va tushuntirish ishlarini olib borish orqaligina chaqaloq savdosidek illatga qarshi kurashish mumkin bo'ladi.

U. Ergashev - Rishton tumanlararo iqtisodiy sudining raisi

2022-01-31 19:21:33